

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Aholi maskanlarini vujudga kelishida geomorfologik omillarning o'rni va ahamiyati	231
O.I.Abdug'aniyev	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari	236
T.D.Jumayev, Sh.B.Qurbanov	
O'zbekiston tog' zonasasi ma'muriy-hududiy bo'linishi xususiyatlari va ularni takomillashtirish	244
P.A.Xasanov	
Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlarning qo'llanilishi va tizimli yondashuv	250
<hr/>	
QISHLOQ XO'JALIGI	
N.A.Abdujalil, S.A.Bayrambay, I.N.Mamajonov	
Urug'lik paxtani yetishtirish va yuqori kondisiyali urug'lik fondini tayyorlash.....	257

ILMIY AXBOROT

K.G'.Baykalanov	
O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarligini oshirishda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhit farovonligining o'rni.....	263
G.M.Maxsudova	
Ekologik ta'limni modernizatsiyalashda ekosavodxonlikni shakllantirishning pedagogik va integrativ jihatlari	267
Sh.Ismatov	
Yangi O'zbekiston – yangi ma'naviy makon	272
A.A.Saodatov	
Yoshlar ekologik madaniyatida nodavlat-notijorat tashkilotlarining tutgan o'rni.....	276
M.X.Raxmatulloev	
Buxoro viloyat radiosining tashkil topishi tarixi va faoliyati	280
D.I.Nuriddinova	
Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.....	285
D.M.Redjabova	
Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida xotin-qizlarning davlat tashkilotlaridagi faolligi	290
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik jihatlari	294
K.I.Turdaliyeva	
Интерпретация литературы по формированию функциональной грамотности учащихся начальных классов	297
N.A.Subxonova	
Mahalliy va xorij manbalarida Amir Shohmurod shaxsi va faoliyati tavsifi	303
Sh.M.Xaydarova	
Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlar o'ttasidagi dialektik munosabatlar va ularning rivojlanishi	307
D.M.Xusanov	
Axloqiy qadriyatlar va ularning postmodern jamiyatdagi o'ziga xos jihatlari	311
R.S.Batirov	
Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning asosiy elementlari xususida	315
A.X.Mamadalimov	
Kosmopolitizm tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari xususida	319
Y.Sh.Yunusova	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy xususiyatlari	324
N.T.Buzrukova	
Zamonaviy jamiyatda shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlikni ta'minlash zarurati va falsafiy asoslari	327



УО'К: 316.728

**YOSHLAR EKOLOGIK MADANIYATIDA NODAVLAT-NOTIJORAT
TASHKILOTLARINING TUTGAN O'RNI**

**РОЛЬ НЕНАЦИОНАЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ
МОЛОДЕЖИ**

**THE ROLE OF NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN THE ECOLOGICAL
CULTURE OF YOUTH**

Saodatov Alimardon Abduraxmonovich 
O'zbekiston Milliy Universiteti, tayanch doktoranti

Аннотация

Mazkur maqolada yoshlar ekologik madaniy kamolotida nodavlat-notijorat tashkilotlari ham muhim o'rin tutishi tahliliy bayon etildi. Shu o'rinda "nodavlat notijorat tashkiloti" tushunchasiga izoh berib o'tildi.

Аннотация

В данной статье аналитически рассматривается значительная роль, которую играют ненадежные организации (НПО) в экологическом развитии молодежи. Также дается объяснение понятия "ненадежная организация".

Abstract

This article analytically discusses the significant role that non-governmental organizations (NGOs) play in the ecological development of youth. It also provides an explanation of the concept of "non-governmental organization."

Kalit so'zlar: Yoshlar, madaniyat, ma'naviyat, qadriyat, ekologiya, tabiat, atrof-muhit, ilm-fan, adob-axloq, nodavlat-notijorat.

Ключевые слова: молодежь, культура, духовность, ценности, экология, природа, окружающая среда, наука, этика, ненадежные организации.

Key words: youth, culture, spirituality, values, ecology, nature, environment, science, ethics, non-governmental organizations.

KIRISH

Yoshlar ekologik madaniy kamolotida nodavlat-notijorat tashkilotlari ham muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda "nodavlat notijorat tashkiloti" tushunchasiga izoh berib o'tadigan bo'lsak, NNT bu yuridik shaxs bo'lib, fuqarolar (yuridik shaxslar) tomonidan o'z huquqlarini himoya qilish, umumiy manfaatlarini birgalikda amalga oshirish, xayriya hamda boshqa maqsadlarda tashkil etiladigan birlashmadir. Umuman olganda fuqarolarning nomoddiy manfaatlarini ifoda etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'lum bir ijtimoiy soha faoliyatini rivojlantirish, xayriya va boshqa maqsadlarda tashkil etilgan, asosiy maqsadi daromad olish bo'lmagan ixtiyoriy nodavlat tuzilma nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda to'qqiz mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'satmoqda va ular jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

NNT oid 20 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilindi. Bu borada fikr yuritganimizda ko'z o'ngimizdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 mayda PF – 5430-sون "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 3 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 5012-sون "Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

ILMIY AXBOROT

Qarori va shuningdek, 2021-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6181-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da belgilangan vazifalar doirasida, 50 nafar nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruva akademiyasida malaka oshirish kurslari tashkil etildi va kurslarni tamomlagan tinglovchilarga tegishli sertifikatlar topshirilgani, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 1-dekabrdan nodavlat notijorat tashkilotlariga qulaylik yaratish maqsadida ularning faoliyati bilan bog'liq bir qator xizmatlarni elektron tarzda amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi www.e-ngo.uz portali ishga tushirildi kabilar bir-bir o'tadi.

Gap bu yerda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati haqida emas, balki yoshlardan ekologik madaniy kamolotida nodavlat-notijorat tashkilotlari roli haqida bormoqda. Yangi O'zbekistonda hisob kitoblarga qaraganda, natijada nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar soni bir yilning o'zida 10 665 taga oshganligi qayd etiladi. Albatta ularni salmoqli qismini yashil tabiat borlig'ini himoya qilish, sog'lom ekologik muhitni yaratish va yoshlardan ekologik madaniyatini shakllantirish borasidagi ishlar ham tashkil qilishi shaksizdir.

NNTlar tabiat zaxiralarini muhofaza qilish va samarali ishlatish bo'yicha ishlarni, asosan aniq belgilangan ekologik yo'nalishda olib boradi. Bu borada jamoatchilmknini ekologik muammolardan o'z vaqtida boxabar qilib borish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu jaroyonning huquqiy negizlarini mustahkamlash muhimdir.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda Jamoat ekologik tashkilotlari tomonidan atrof muhit holati bilan tanishtirishga yo'naltirilgan loyihamalar bajarilib, turli tadbirlar Farg'ona va Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida faolroq o'tkazilgan.

1990 yillarning oxirlarida mavjud fuqarolik tashabbuslari, xalqaro tashkilot va jamg'armalarning tashabbusi va qullab quvvatlashi natijasida, O'zbekistonning barcha hududlarida qator yangi jamoat ekologik tashkilotlari hamda tashabbuskor guruqlar tashkil etildi. Ammo 2000-yillarda ekologik NNTlarning asosiy qismi turli hududlarda o'z faoliyatini to'xtatib qo'ydi. Xususan, Orolbo'yida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati) faol ish yuritib turgan 12 ta NNT dan 9 tasi o'z faoliyatini yakunladi. 2005 yilda O'zbekistonda nadavlat notijorat tashkilotlari Milliy assotsiatsiyasi (O'zNNTMA) va NNTlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgandan so'ng vaziyat ijobjiy tomonga o'zgara boshladi. O'zNNTMA sa'yi-harakati bilan 2006 yilda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy muammolarini echishda NNTlar faoliyatini yanada oshirishga qaratilgan yangi yoshlarni NNTlarni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash" Dasturi bo'yicha 14 ta yangi yoshlarni NNTlari tashkil qilinib, hududlardagi bir qator ijtimoiy muammolarni echishda faoliyat olib bordilar.

O'zbekiston Ekologik partiyasi respublikaning ekologik nodavlat notijorat tashkilotlari bilan faol hamkorlik aloqalarni olib bordi. Ekologik aktsiya va tadbirlarni o'tkazishda "EKOSON" ekologiya va salomatlik xalqaro xayriya jamoat fondi (hududiy bo'linmalari 10 ta), "Logos", "Hayot", "Rodnichok", "Orol va Amudaryoni muhofaza qilish uyushmasi", O'zbekiston Ekologik harakati (xududiy bo'linmalari 14 ta) O'zbekiston Qushlarni himoya qilish jamiyatini xududiy tashkiloti "Eko-Tib", O'zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatni, "Bolajon dunyosi" xayriya jamoat fondi, "Salomatlik plus ekologiya" markazi, "Ekologik toza Farg'ona uchun" assotsiatsiyasi xududiy bo'linmasi, "Jonli tabiat" jamoat birlashmasi, "Nur va hayot" markazi, "Oxangaron gavhari" Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi va "Mushukkent" loyihasi vakillari, "Ekomaktab" ekologik-resurs markazi, Ovchilar uyushmasi kabi NNTlari bilan doimiy hamkorlik amalga oshirildi.

Sog'lom ijtimoiy-ekologik muhitni shakllantirishda "EKOSON" xalqaro xayriya ekologiya va salomatlik jamoat jamg'armasining roli katta. Ma'lumki, "EKOSON" xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi 1992-yil may oyida tashkil topib, 2009-yil 6-aprel kuni o'tkazilgan ta'sis konferentsiyasida nodavlat notijorat tashkilot hisoblangan "EKOSON" xalqaro jamoat jamg'armasiga aylantirildi. Tashkilot 14 ta hududiy va 200 ta shahar va tuman bo'limlariga ega. Jamg'armaning amalga oshirgan katta dasturlaridan biri - bu "Ekologiya va salomatlik" tarmoqlararo dasturidir (1994-1995 yillar). 400 dan ortiq banddan iborat bo'lgan mazkur dasturni amalga oshirish natijasida atrof-muhitga chiqarilayotgan chiqindilar miqdorini 20 foizga qisqartirish hamda ko'pgina ijtimoiy va tabiatni muhofaza qilish ob'ektlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash imkonini berdi.

Ekologik nasog'lom muhitni yaxshilash maqsadida jamg'arma "Salomatlik poezdi"ni tashkil qildi. Bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan O'zR Vazirlar Mahkamasi 1993 yilda "EKOSON" salomatlik poezdi haqida qaror qabul qildi. Aynan jamg'armaning tashabbusi bilan O'zR Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 18 martdagি qarori bilan har yili "Ekologiya va salomatlik kunlari" o'tkazib kelindi. O'tgan yillarda jamg'arma mamlakatning ekologik nasog'lom mintaqalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Qashqdaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlari hamda Farg'ona vodiysidagi qishloqlardagi tibbiyot muassasalari, mehribonlik uylari uchun o'ta zarur dezinfektsiya vositalarini etkazib berishni mintazam amalga oshirib kelmoqda.

1995 yil yanvarda YuNISEF bilan hamkorlikda "Orolbo'yи ayollari va bolalariga ekologik va hududiy yordam" "ASPERA" loyihasi shuning chiqilib, bu yuzadan 1995 yil 31 iyulda Vazirlar Mahkamasining "ASPERA" loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori chiqdi. Loyiha 1995-1998 yillarda davomida 3,12 mln AQSh dollari miqdorida amalga oshirildi. "EKOSAN" jamg'armasi tashabbusi bilan mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. "EKOSAN" Xalqaro jamg'armasi va F.Ebert nomli jamg'armaning vakolatxonasi (Germaniya) tomonidan "Ekoturizm va Buyuk ipak yo'li" mavzusida o'tkazilgan 1 Xalqaro konferentsiyada qabul qilingan Tavsiyanomaga binoan "EKOSAN-Tur" Xalqaro markazi tashkil qilingan bo'lib, mazkur markaz tomonidan "2006-2010 yillarda ekologik turizmnинг servis va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish Dasturi"ni amalga oshirish ishlari olib borildi. Umuman olganda bugungi kunda "EKOSAN" Xalqaro jamoat fondining asosiy maqsadi inson salomatligi salbiy omillari ta'sirini kamaytirish. Orol muammosining ijtimoiy-ekologik oqibatlarini yumshatishdan iborat. Tashkilot 2008 yilning o'zida 27 ta gumanitar poezdlari orqali jami 1.8 mlrd so'mlik gumanitar yordamini respublika hududlariga yuborgan.

Ma'lumki, O'zbekiston ekologik harakati 2008 yilda tashkil topdi. Ekoharakat "Soglom muhit inson salomatligi" g'oyasini o'zining asosiy shiori hisoblaydi va uni amaliy bajarilishini ta'minlash maqsadida, o'z oldiga quyidagi dasturiy vazifalarni qo'ygan:

1. Atrof-muhit muhofazasi na ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtiroti faolligini har tomonlama kuchaytirish.
2. Atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalarida qabul qilingan qonunlar va davlat miqyosidagi boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash hamda bu sohadagi qonunchilikni rivojlantirish va takomillashtirisha ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlarni yuritish.
3. Atrof tabiiy muhit muhofazasi va shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish borasida qabul qilingan hujjatlarni ijo etishda markaz va joylarda davlat organlari, jamoatchilik va boshqa tuzilmalar mas'uliyatini oshirish
4. Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish.
5. Atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
6. Atrof-muhit muhofazasi davlat, jamiyat va har bir fuqaroning vazifasi bo'lishiga erishish.
7. Atrof-muhit muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish.

XULOSA

Ekoharakatning hududiy bo'linmalari mamlakatda aholining salomatligini asrash, ekologik muhitni yaxshilash. Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Masalan, O'zbekiston ekologik xarakati tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan "Ekologik bog'larni barpo etish ishlari shular jumlasidandir. 2009 yilda O'zbekiston ekologik xarakati Sirdaryo viloyati hududiy bo'linmasi viloyat hokimligi bilan hamkorlikda Mirzaobod tumanidagi 19 hektar erni o'zlashtirib, 21 ming tupdan ziyod mevali hamda manzarali daraxt ko'chatlari o'tkazildi. 2010 yilda hududiy bo'linmalar tashabbusi bilan Qashqdaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli, Nukus tumanlarida ham "Ekobog'lar tashkil etildi. Oxirgi yillarda yurtimizda ekobog'larga e'tibor qaratilmoqda birgina misol Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida O'zbekiston Ekologik harakati va BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida ekobog' yaratishga bag'ishlangan ekologik aksiya o'tkazildi. Tadbirda deputatlar, BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlari, Ekoharakat faollari ishtirot etdi. O'zbekiston Ekologik harakati O'zbekistonda yashil hududlarni kengaytirish, tashlandiq yerlarni obod qilib, ekobog'lar tashkil

ILMIY AXBOROT

etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning turli hududlarida tashkil etilgan, umumiy maydoni qariyb 120 gektardan iborat yigirma beshdan ziyod ekobog'ga o'ttiz ming mevali va manzarali ko'chat ekilgan. Ekologik aksiya doirasida 400 tupdan ortiq manzarali daraxt ko'chati ekildi. Bunday ekobog'lar yurtimiz ko'rkiga ko'rkk qo'shadi, atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Xudayberdiyev A. Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi Nodavlat notijorat tashkilotlar bo'limi boshlig'i, E.Dustov, Bo'lim katta maslahatchisi. Nodavlat notijorat tashkiloti nima? <https://chiroqchi.uz/672-news.html>
2. Amangeldi Prenov. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati sohasiga nazar: nimalar o'zgarmoqda? <https://yuz.uz/news/nodavlat-notijorat-tashkilotlari-faoliyati-sohasiga-nazar-nimalar-ozgarmoqda>.
3. Sharifxadjaeva Sh. Zakonaditel'naya osnova formirovaniya ob'yestvennykh ob'edineniy (www.armon.fieenet.uz/rus/bulletin/1/05.html)
4. DEQJA O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit xolati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida Milliy ma'ruza. 2008. –B239
5. O'ZINTMAJA Assotsiatsiyaning 2006-2011-yillarda ekologiya yo'nalishidagi faoliyati yuzasidan ma'lumot. – B3
6. Ob "EKOSON" <http://www.ecosan.uz/about.ru.html>
7. "EKOSON" xjfja "EKOSON" Xalqaro jamoat fondi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi ma'lumoti. Yanvar. 2011
8. <https://kun.uz>